

**QALBI O'ZBEK BO'LGAN RUS SHOIRI- ALEKSANDR ARKADEVICH
FAYNBERG****Turg'unboyeva Arofatxon Otabek qizi***O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universitetining 1-kurs talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek adabiyotiga hissa qo'shgan Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar yoritildi. O'zi rus bo'lsa-da, qalbi o'zbek, ko'p qirrali va qalami o'tkir ijodkor she'rlari keltirilgan. Faynbergning "O'zbekfilm" kinostudiyasida ko'plab filmlari suratga olingan hamda badiiy tarjimaga ko'p hissasini qo'shgan.*

Kalit so'zlar: *Aleksandr Faynberg hayoti va ijodi, she'rlari, kitoblari, filmlari, animatsion filmlari, xalq shoiri, mukofot.*

Turgunboyeva Arofatkhon daughter of Otabek*1st year student of Uzbekistan State University of World Languages.*

Abstract: *This article provides information on the life and work of Alexander Feinberg, who contributed to uzbek literature. Although he is a Russian, his heart is Uzbek, he is multifaceted and has a sharp pen. Many of Feinberg's films were shot at the Uzbekfilm studio, and he made a significant contribution to artistic translation.*

Keywords: *Life and work of Alexander Feinberg, poems, books, films, animated films, people's poet, award.*

Тургунбаева Арофатхан дочь Отабека*студентка 1 курса Узбекского государственного университета мировых языков.*

Аннотация: *В данной статье освещены сведения о жизни и творчестве Александра Фейнберга, внесшего вклад в узбекскую литературу. Хоть он и русский, но в душе узбек, также представлены стихи разностороннего и острого писателя. Многие фильмы Фейнберга были сняты на киностудии «Узбекфильм», он внес большой вклад в художественный перевод.*

Ключевые слова: *жизнь и творчество Александра Фейнберга, стихи, книги, фильмы, мультфильмы, народный поэт, премия.*

O'zbek adabiyotining ulkan namoyondalaridan biri bo'lgan, qalbi o'zbek rus shoiri – Aleksandr Faynberg Arkadevich. O'zbek va rus kitobsevarlarning ko'nglidan joy olgan mohir shoir va tarjimon 1939-yil 2-noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan. Shoirning ota-onasi dunyoga kelishidan ikki yil avval Novosibirskdan ko'chib kelgan. Uning otasi Arkadiy Lvovich Faynberg (1891-1971), asli Gatchinalik, texnologiya institutining tugatgandan so'ng, spirt zavodida bosh muhandis bo'lib ishlagan.

Shoirning onasi Anastasiya Aleksandrovna (1904-?), Moskvada tug'ilgan, u ham spirt zavodida mashinist bo'lib ishlagan. Yozuvchi oddiy bolalar kabi yetti yillik maktabni tamomlagach, Toshkent topografik texnikumiga o'qishga kiradi. Texnikumni tugatgach, Tojikistonga harbiy xizmatni o'tash uchun yo'l oladi. U harbiy xizmatdan qaytgandan so'ng Toshkent universitetini (hozirgi Toshkent davlat milliy universitetini) sirtqi filologiya fakultetining jurnalistika bo'limini tamomlaydi va talabar gazetasida ishlaydi. Faynberg bir necha yillar davomida Toshkentda O'zbekiston yosh yozuvchilari seminariga rahbarlik qilgan.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ham ishlagan, shuningdek, bu uyushmaning faol a'zolaridan biri bo'lgan. 1961-yilda Inna Glebovna Koval bilan turmush qurgan. Aleksandr Faynberg 15dan ortiq she'riy to'plamlar, 20dan ziyod multfilmlar va nasriy asarlar muallifi. "Etyud"(1967), "Sonya"(1969), "She'rlar"(1977), "Olis ko'priklar"(1978), "Ijobat"(1982), "Qisqa to'lqin"(1983), "Yoyma to'r"(1984), "Erkin sonetlar"(1990) kabilar shular jumlasidandir. Faynbergning she'riy ijodida o'tmish bilan hozirgi kun, G'arb bilan Sharq milliyligi va baynalmilalchiligi o'zaro tutashib, badiiy olamni vujudga keltiradi. Uning kinossenariylari asosida esa "O'zbekfilm" kinostudiyasida "Qandahorda toblanganlar", "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Tojikfilm" kinostudiyasida esa "Jinoyatchilar va oqlovchilar" kabi boshqa filmlari suratga olingan. 1999-yilda "Paxtakor" futbol jamoasi avtohalokatda halok bo'lganining yigirma yilligi munosabati bilan uning ssenariysi bo'yicha "Osmondagi stadion" filmi suratga olingan.

Faynberg ijodining eng kata qismini badiiy tarjima tashkil qiladi. U o'zbek she'riyatining mashhur qalam sohiblari A.Navoiy g'azallari, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon she'r va dostonlarini rus tiliga tarjima qilgan. Moskvada nashr qilingan Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" poemasi Faynberg tarjimonlik faoliyatini yaqqol misolidir. Faynberg badiiy merosining katta qismini Rutam Musurmon o'zbek tiliga o'g'irgan. Buyuk yozuvchi O'zbekistonimiz adabiyotiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan uchun birinchi rus millatli adib sifatida 2004-yil 23-avgustda "O'zbekiston xalq shoiri" deb e'tirof etiladi. Rus va o'zbek adabiyotida hamda ma'daniy a'loqalarni bog'lashda samarali mehnati va ezgu ishlari uchun Rossiya Fideratsiya tomonidan 2008-yil 3-dekabr "Pushkin" medali bilan taqdirlangan.

Shoir she'rlari o'zbek xalqi qalbiga shu qadar chuqur kirib borganki, turli yoshdagi odamlarning qalbini zabt etgan:

Yulduzlarni asraydi falak,
Teran dengiz asrar durlarni.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
Asragin men yozgan she'rlarni.
She'r- nafaqat o'qimoq, uqmoq,
She'r- yurakda yangragan tovush:
Qutqargandek taygada so'qmoq,
Tebrangandek ko'llarda qamish.
Har satrim- jon, har satrim- yurak,
O'rmon, qushlar, bulutlarga xesh.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
She'rlarimni asra peshma-pesh.
Avlodlarga kelmasin malol,

She'rlarim g'am chekmasin nochor,
Shamol, dengiz va yaproq misol
Nafas olsin, kulsin beg'ubor.

Shoir oddiy, kichik narsalar bilan go'zal bir she'r yaratish uning tug'ma iste'dodi desak, adashmagan bo'lamiz. Shoirning bu she'ridan shuni tushunishimiz mumkinki, u uchun har bir yozgan she'ri qanchalik qadrli ekanli, uni asrash zarurligini juda chiroyli tarzda tasvirlab bergan. Yuqoridagi satrlari orqali uning she'r daftari, har bir she'rini asrashiga hamda ular bir kun kelib yosh avlodlar qalbidan joy olishiga ishongan. Mana xozir, baytlari tillarda yangramoqda.

Qalbi o'zbek rus shoiri- Alesandr Fayenberg 2009-yil 14-oktyabrda Toshkent shahrida vafot etdi va u Botkin qabristonining bo'limiga dafn etilgan. O'zbekistonda Faynberg xotirasini abadiylashtirish maqsadida adiblar xiyobonida Faynberg haykali qad rosladi. Adib ijodini kengroq targ'ib etish maqsadida Faynberg nomidagi maxsus stipendiya ta'sis etilgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg.
2. <https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/download/2271/2147/2102>.
3. <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/4678>.
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>.